



BADIIY MATN TURLARINING ONA TILI DARSLARIDA TAHLIL ETILISHI VA O'RGANILISHI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2023

Accepted: 18th June 2023

Online: 19th June 2023

KEY WORDS

*Emotsionallik, ta'sir kuchi,
kirish so'zlar ifodasi, ogzaki
nutq sharhi, uozma nutq sharhi,
badiiy asar tahlili.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili o'qitish darslarida badiiy matn turlaridan foydalanishning o'ziga xosligi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, badiiylilik bo'yog'iga ega bo'lgan matnlarning boshqa turdagi matnlardan farqli jihatlarini yuzasidan amaliy tushuntirish ishlarini olib boorish maqsadga muvofiq ekanligi anglashiladi. Badiiy matnlar kitobxonga axborot berishdan tashqari estetik zavq va ilhomlantiruvchi kuch berishi bilan ham izohlanishi haqida fikr yutilgan.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarning ta'lim olishlari uchun yaratilib berilgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holatda asosiy vazifa sifatida ularning erkin fikrlash olishu vca uslubiy jihatdan xoslangan nutq va matn turlarini ifodalay olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ilmiy va badiiy matn turlarining konseptual tarzda o'rganilishida qo'l keluvchi, badiiy asarlar va ushbu xususiyatni o'zida saqlab qola olgan janr xususiyatlari ham muhim ekanligi bilan ahamiyatlilik darajasini o'zida namoyon qiladi. Shuningdek, badiiy matnlar tarkibida anglashiluvchi mazmunning prinsipal tarzda ifodalanish yo'llari an'anaviy tahlil orqali ham amalga oshiriladi. Bunda, asosan, ona tili o'qitish darslarida badiiy tarzda qo'llaniluvchi so'z va jumalardan tarkib topgan matnlarning belgisi xususiyatlari – ta'sirchanligi, emotsionalligi va boshqalar izohlaniladi. "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini mustaqil ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa matn uslublarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikka mos musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish-kuldirish mujassamlashgan bo'ladi".[1] O'quvchi-yoshlarga ona tili darslarida kirish so'zlar, iboralar, tasviriy ifodalar va shu kabilar yuzasidan axborotlar va ma'lumotlar berish borasida qo'llaniluvchi komponentlarning umumiy yaxlitlikka ega bo'lgan ifodasi badiiy matn turlarida namoyon boladi. O'z o'rnida shuni aytish mumkinki, badiiy matnning tahlili o'zaro, muallif ijodi xarakter xususiyatiga monand ekanligi bilan anglashiladi. Shuningdek, badiiy matnlar



faqatgina mualliflar tomonidagina yaratilibgina qolmasdan xalq og'zaki ijodi provardida ham namoyon bo'lishi bilan izohlaniladi deyish mumkin. Badiiy matn tahlilida quyidagilarg ahamiyat qaratish lozim.

1. Estetik ta'sir kuchiga egaligiga ko'ra;
2. Ilhomlantiruvchi ta'sir kuchiga ko'ra;
3. Nasriy ifodaviyligiga ko'ra;
4. Janr xususiyatiga ko'ra;
5. Sujetlilik va harakat belgisiga ko'ra;
6. Personajlar munosabatiga ko'ra;
7. Kirish soz va iboralar ta'siriga ko'ra;
8. Voqealar rivojining tasviriy prinsiplariga ko'ra;
9. Hajm va shakl munosabatiga ko'ra;
10. Voqealar rivojining ketma-ketlilikda ifodalanishiga ko'ra.

Shuni aytish mumkinki, ona trili darslarida qo'llaniluvchi badiiy matnlarning aksariyat qismlari adabiyot kitoblari tarkibidan yoki xalq ogzaki ijodi namunalaridan olinishi bilan xarakterli hisoblaniladi. Shuningdek, badiiy matnlarning tahlil etilishi jarayoni bilan yaqindan tanioshish jarayonida o'quvchining shu paytda qadar egallagan bilim va ko'nikmalaridan ham foydalanish lozim bo'ladi. Bunda, asosan, badiiylik bo'yog'ini olgan so'zlar va badiiylik bo'yog'ini topish yo'llari va qolaversa, badiiy matnning tarkibiy qismlaridan biri sanaluvchi kirish so'zlar, iboralar va boshqalar bilan ham xarakterli xususiyatlarni o'zida jam etadi.

Badiiy matnlar ifodalaniladigan janr turlari ham ifodaviylik darajasiga ko'tarilganki, uslublar nuqtayi nazaridan va ifoda shakllaridan kelib chiqqan holatda, badiiy matnlarning badiiylik bo'yog'i ufurib turadi. Shuning uchun ham, badiiy matn turlariniong ona tili darslarida tahlil etilishi va o'rgatilishi yuzasidan adabiy janrlar namunasida o'rganish maqsadga muvofiqlik darajasini saqlab qolgan ekanligi bilan izohlaniladi.

"Keng ma'noda badiiy asar san'atning u yoki bu turi (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr) mansub bo'lgan, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijtimoiy-ruhiy faoliyati mahsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi. Shuningdek, alohida olingan musiqa asari ham haykal yoki rang-tasvir ham, film yoki spektakl ham bari badiiy asar sanalaveradi. Ammo tor ma'noda(termin sifatida) badiiy adabiyotga mansub bo'lgan "Adabiy-badiiy asar"ni bildiradi. Shu o'rinda adabiyotga mansub asarlarning hammasi ham vafiiy asar bplavermasligi "Adabiy asar" bilan "Adabiy-badiiy asar" tushunchasining qamrovi keng bo'lib, "Adabiy-badiiy asar" uninc tarkibiga kirdigan hikoya, qissa, romon, memuar, sayohatnoma, esse janrlarida bitig'gan asarlarning o'ziga xosligi bilan ifodalaniladi".[2] Ona tili darslarida qo'llaniluvchi birikmalar va iboralar o'z o'rni va matnning mazmuniga ko'ra adabiy - badiiy asarlarning badiiylik bo'yog'i bilan ifodalanishini ham izohlab keladi. Shuning uchun ham badiiy asarlarni tahlil qilishda kirish so'zlar va iboralarining o'rni imkon qadar tahlil jarayonida g'oyaviy ifodaviylikka tayanilib amalga oshiriladi. Shuningdek, badiiy matnlarni tahlil qilish davomiyligida matnning o'ziga xosligini va ahamiyatini ochib beruvchi prinsplilik qoidalarining uslubiy xoslanish qonuniyatlari bilan muntazam ravishda aloqadorlilik tamoyillari bilan ham amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida o'qituvchi tomonidanm o'quvchilarg badiiy asarlar bilan yaqindan tanishtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va



axborotlarning umumiy tarzda ifodalanishi ham ahamiyatli hisoblaniladi. Shuningdek, ona tili darslarida o'quvchilarda badiiy matnlarning tarkibiy qismini tashki qiluvchi vositalar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu esa matnning tarkibida kelgan so'zlarning badiiylilik bo'yog'iga ega ekanligi va xoslangan ekanligi bilan anglashgilib turadi. Shuni aytisgh mumkinki, badiiy matnlarning boshqa matnlardan farqlki jihatlari ham uning tahlil qilinishida yaqqol ajralib turadi. Bu esa o'quvchi – yoshlarda matnning tahlilga tortilishida sezgir bo'lishni va o'ziga xoslilikni taqazzo etilishi bilan ajralib turadi deyish mumkin. Shuning uchun ham badiiy matnlarning ona tili darsllaridagi taahlil namunalarior bilan adabiyot darslaridagi tahlillarida uzviy aloqdorlik mavjudliligi va farqlilik prinsiplariga tayanishi bilan ajralib turadi deyish mumkin.

References:

1. Yo'ldoshev Ma'rufjon. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent – 2008
2. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-Print" 2023.